SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ S/4 (3) - 2023

# ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

# АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

# ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
ELECTRONIC JOURNAL

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SP1342V3SI4Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Махсус сон

***№ S/4 (3) – 2023***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**ТОШКЕНТ-2023**

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич –филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа октори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Crossref DOI:**

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

**Google Scholar**

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

**Таҳририят манзили:**
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал:
https://t.me/scienceproblems_uz

## *МУНДАРИЖА*

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

*Аббасов Беҳзод Бахтиёрович*
1946 – 1965 ЙИЛЛАРДА ФАРҒОНА ВОДИЙСИДА ИРРИГАЦИЯ ВА МЕЛИОРАЦИЯ ИШЛАРИ ҲАМДА АҲОЛИНИ ЯНГИ ЎЗЛАШТИРИЛГАН ЕРЛАРГА КЎЧИРИШНИНГ БОШЛАНИШИ ........ 10-21

*Бабаджанов Хасан Бахтиёрович*
ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ДАВРИДА ЎЗБЕКИСТОНДА ОЗИҚ-ОВҚАТ МАҲСУЛОТЛАРИ ТАЪМИНОТИДА ТОМОРҚА ХЎЖАЛИКЛАРИНИНГ ЎРНИ ........ 22-27

*Саидбобоева Гулзора Нематжоновна*
ГОЭЛРО РЕЖАСИ ВА УНИНГ ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДА АМАЛГА ОШИРИЛИШИ ........ 28-36

*Rasulov Ma'murjon Foziljonovich*
OʻZBEKISTONDA XALQARO SAYYOHLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MADANIY MEROS OBYEKTLARINING OʻRNI ........ 37-42

*Жиянбекова Шарофат Абдикахаровна*
А.С. ПУШКИН НОМИДАГИ САМАРҚАНД ВИЛОЯТИ КУТУБХОНА МАРКАЗИНИНГ ТАШКИЛ ЭТИЛИШИ ВА ШАКЛЛАНИШИ ТАРИХИ ........ 43-51

*Esonov Ziyodbek Yuldashevich*
FARGʻONA VODIYSI QORAQALPOQLARI HUNARMANDCHILIGI TARIXIDAN ........ 52-58

*Фарманова Гульнара Комилевна*
ИЗ ИСТОРИИ ПЕРВЫХ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ РАБОТ И ИССЛЕДОВАНИЙ НА АФРАСИАБЕ ........ 59-65

*Turaev Sherzod Gulboy ugli*
DESCRIPTION OF CHARACTERISTICS AND TYPES OF LIVESTOCK FARMING OF SURKHAN OASIS IN B.H. KARMISHEVA RESEARCH ........ 66-71

*Сотиболдиев Ғайратжон Отамирзаевич*
ИНТЕРНЕТНИНГ ТАЪЛИМ ТИЗИМИГА КИРИБ КЕЛИШИ ТАРИХИ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР ........ 72-78

*Rasulov Azizkhon Mukhamadqodirovich*
ЎЗБЕКИСТОННИНГ МУСТАҚИЛЛИК ДАВРИ ТАРИХИ МАНБАЛАРИНИНГ УМУМИЙ ТАВСИФИ ........ 79-90

*Абдуллажанова Нигорахон Турдалиевна*
БЕРУНИЙ ВА ИБН СИНО ҲАЁТИ ВА ИЛМИЙ МЕРОСИ ТАРИХШУНОСЛИГИДАН ........ 91-95

*Дониёров Носиржон Абдухолиқ ўғли*
ЎЗБЕК ТИЛИ ВА ИМЛО СИЁСАТИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР ТАРИХИДАН ........ 96-102

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

*Юлдашев Обиддин, Махлиё Мамбетқулова*
ИСЛОМИЙ СУҒУРТА (ТАКАФУЛ) ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ........ 103-109

*Фозилов Умид Закирович*
БОШҚАРУВ ХОДИМЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ОҚИЛОНА БАҲОЛАШ ТАШКИЛОТ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ САМАРАДОРЛИГИНИНГ АСОСИ ........ 110-118

*Shoyev Davronbek Axmadjonovich*
BOSHQARISH SIFATINI OSHIRISHDA “MENEJMENT LABORATORIYASI”NI TASHKIL QILISHNING O‘RNI ........ 119-125

*Орзуқулова Зумрад Абдуҳолиқ қизи*
ТРАНСПОРТ-ЛОГИСТИКА ХИЗМАТЛАРИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМЛАРИ ........ 126-133

*Djurakulov Shoxrux, Isaxonova Mohinur*
O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI ........ 134-139

*Raxmatullayeva Feruza Azimovna, Sharobiddinov Ahrorbek Qosimjon o‘g‘li*
YALPI HUDUDIY MAHSULOT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI ........ 140-146

*Ёдгорова Шахноза Хайридиновна*
ЎЗБЕКИСТОНДА ВА ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАРДА ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ТАЖРИБАЛАРИ ........ 147-155

*Qurbonov Ma’murjon G‘ayrat o‘g‘li*
ASOSIY ISHLAB CHIQARISH KO‘RSATKICHLARINI TAKOMILLASHTIRISH USLUBIYATI ........ 156-166

*Nurullayev Hoshimjon Hamidovich*
BUXORO VILOYATINING NOMODDIY-MADANIY MEROSONING O‘ZBEKISTON TURIZMI RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI ........ 167-172

*Маматов Бахадир Сафаралиевич*
РИВОЖЛАНГАН ВА РИВОЖЛАНАЁТГАН МАМЛАКАТЛАРНИНГ ПЕНСИЯ ТАЪМИНОТИ ТИЗИМИ ТАЖРИБАЛАРИ ........ 173-188

*Ғойипназаров Санжар Баходирович*
ИНСОН КАПИТАЛИНИ РАҚАМЛИ РИВОЖЛАНТИРИШ ДРАЙВЕРЛАРИНИНГ ИНСТИТУЦИОНАЛ МОДЕЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ........ 189-195

*Садинов Азиз Зиядуллайевич*
ЧИҚИНДИ МАҲСУЛОТЛАРИНИ ҚАЙТА ИШЛАШНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА ТЕХНОЛОГИК ЖАРАЁНЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ........ 196-203

*Қурбонова Рахима Жамшедовна, Мирзаева Ширин Нодировна, Хакимов Дамир*
ИЖТИМОИЙ КАПИТАЛНИ ЎЛЧАШДА ИЖТИМОИЙ ТАРМОҚЛАР ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ РОЛИ ........ 204-216

*Asamxodjayeva Shoira Shukurullayevna, Maxmudov Muxammadqodir Muzaffar o‘g‘li*
YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA UNGA INVESTITSIYALARNI YO‘NALTIRISH ZARURIYATI ........ 217-222

*Исломов Алишер Бахтиёр ўғли*
БУХГАЛТЕРИЯ АУТСОРСИНГ ХИЗМАТЛАРИНИ КЎРСАТИШДА ПРОФЕССИОНАЛЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ ........ 223-229

*Agzamova Nargiza Gapurovna*
SPECIFICS OF ETHNOGRAPHIC TOURISM AND ETHNIC TOURISM IN UZBEKISTAN ..... 230-237

*Муродова Дилноза Чориевна*
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШ БЎЙИЧА ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ ВА УНИНГ АМАЛИЙ АҲАМИЯТИ ........ 238-245

*Khodjaeva Shodiyabonu Abitdjanovna*
QISHLOQ XOʻJALIGIDA AGROMARKETING TIZIMINING AHAMIYATI VA UNING FUNKSIYALARI ........ 246-250

## *09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ*

*Нуруллаева Зулхумор Сидаматовна*
МИЛЛИЙ ВА УМУМИНСОНИЙ МАДАНИЯТ ТИЗИМИДА МАҚОМ САНЪАТИНИНГ ЎРНИ ........ 251-259

*Ibroximov Sarvar Moʻydinjon oʻgʻli*
IJTIMOIY-GUMANITAR VA MUTAXASSISLIK FANLARNI INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA OʻQITISH ORQALI TALABALARDA FUQAROLIK POZITSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 260-265

*Yuldashev Ibroxim Toʻychiyevich*
MOVAROUNNAHR VA XUROSONDA MINIATYURA SAN’ATINING ADABIYOT BILAN OʻZARO UYGʻUNLIGI VA GʻOYAVIY ESTETIK VA AXLOQIY TASAVVURLARINING MUSHTARAKLIGI ........ 266-271

*Khamdamova Sitora Safarovna*
MARKAZIY OSIYO XALQLARI TARIXIY TARAQQIYOTIDA KROSS-MADANIYATINING OʻZIGA XOSLIGI ........ 272-277

*Абдуллаев Джасур Абдиваит ўғли*
ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ КЛАССИФИКАЦИИ КАЧЕСТВ СОВЕРШЕННОГО ЧЕЛОВЕКА ........ 278-283

## *10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ*

*Xasanov Akbarjon Abdurashidovich*
OʻZBEK TILSHUNOSLIGIDA MILLIY KONSEPTOSFERANI VOQELANTIRUVCHI LINGVISTIK BIRLIKLAR BOʻYICHA AMALGA OSHIRILGAN TADQIQOTLAR ........ 284-292

*Qurbonova Muharram Jurabekovna*
XURSHID DAVRON SHE’RIYATINING TIL XUSUSIYATLARI ........ 293-297

*Сафарова Замира Рустамовна*
ИНГЛИЗЧА ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАР ТАРКИБИДАГИ ИНСОН НОМЛАРИНИНГ ЭТИМОЛОГИК ТАСНИФИ ........ 298-304

*Gubaydullin Artur Faridovich*
THE NUANCES OF HUMOR TRANSLATION IN TERRY PRATCHETT'S 'GOOD OMENS' .... 305-313

*Tuxtayeva Dildora Zokirovna, Baxtiyorova Malikabonu Shavkat qizi*
ETEL LILIAN VOYNICHNING “SO‘NA” ASARIDA BOSH QAHRAMONLAR DINAMIKASI ... 314-318

*Seytnazarova Injayim Erjanovna*
TILEWBERGAN JUMAMURATOV ASARLARIDA UNDALMALARNING USLUBIY QO‘LLANILISHI ... 319-325

*Асадова Дилбархон*
ЎРХОН ПАМУҚНИНГ “ҚОРА КИТОБ” РОМАНИДА “ЎЗЛИКНИ ИЗЛАШ” МОТИВИ ..... 326-342

*Khusanov Eldor Davlat o‘g‘li*
BUYUK BRITANIYA VA AMERIKA INGLIZ SHEVALARINING O’XSHASH VA FARQLI JIHATLARI ... 343-348

## *12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР*

*Утемуратов Махмут Ажимуратович*
ЖАМИЯТДА ҲУҚУҚИЙ ОНГ ВА ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТНИ ЮКСАЛТИРИШ – ҲУҚУҚИЙ ДЕМОКРАТИК ДАВЛАТ БАРПО ЭТИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ ... 349-355

*Шымбергенова Улзада*
ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИДА ВОЯГА ЕТМАНЛАРНИНГ ҲУҚУҚ ВА МАНФААТЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШДА ПЕДАГОГ (ПСИХОЛОГ)НИНГ РОЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ... 356-362

*Полвонов Нажмиддин Аслиддинович*
ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИДА МОЛ-МУЛКНИ МУСОДАРА ҚИЛИШ МАҚСАДИ ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ ТАҲЛИЛИ ... 363-372

*Мирзаев Шухрат Шавкатович*
КАТЕГОРИЯ «ДЕЙСТВИЕ ПРАВА»: ПОНЯТИЕ, СУЩНОСТЬ И ПРЕДЕЛЫ ... 373-382

*Муҳаммадиев Сарвар Асқар ўғли*
“ЖИНОЯТ НАТИЖАСИДА ЕТКАЗИЛГАН ЗАРАРНИ УНДИРИШДА РАҚАМЛАШТИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ МАСАЛАЛАРИ” ... 383-392

*Махмудов Суннат Азим ўғли*
ЖИНОЯТ ИШИНИ ТУГАТИШ АСОСИ СИФАТИДА ЯРАШУВ ВА ХУСУСИЙ АЙБЛОВНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ ... 393-399

## *13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ*

*Farrux Axmedov*
XALQARO TAJRIBALAR ASOSIDA KURASHNI RIVOJLANTIRISH ... 400-409

*Музафарова Саодат Хайдаровна*
ЎРТА АСРЛАР ШАРҚ АЛЛОМАЛАРИ МАЪНАВИЙ МЕРОСИДА МУСИҚА ВА УНИНГ ЭСТЕТИК АҲАМИЯТИ ... 410-415

*Xaydarova Iroda Nizomiddinovna*
BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARI TALAFFUZINI TAKOMILLASHTIRISH NUQTAYI NAZARIDAN 2020-2021 O'QUV YILI FAN DASTURLARI VA MATERIALLARI TAHLILI ... 416-421

*Шукурова Нафиса Алишеровна*
ЗАМОНАВИЙ ВОЛЕЙБОЛГА ХОС ҲИМОЯ ҲАРАКАТЛАРИНИ МОДЕЛЛАШТИРИЛГАН ТАРТИБДА ШАКЛЛАНТИРИШ ... 422-427

*Nigmanov Bori Botirovich*
FUTBOLCHILARNI TAKTIK TAYYORLASHDA HARAKATLI O'YINLARNING AHAMIYATI ... 428-433

*Муродова Дурдона Раимжон қизи*
БЎЛАЖАК МУСИҚА ТАЪЛИМИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ БАДИИЙ-ЭСТЕТИК КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИННОВАЦИОН ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯСИ ... 434-438

*Axmedov Alisher Nosir o'g'li*
ANSAMBL BILAN ISHLASH METODLARI VA TAMOYILLARI ... 439-447

*Saparboyeva Dilshoda Sobir qizi*
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA INSON QADRINI ULUG'LASH MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI ... 448-452

*Mansurbekova Feruza Gayratovna*
BOLALAR XORLARI BILAN ISHLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ... 453-456

*Xodjayev Bolta Qurbonovich, Xojiyeva Matluba Shukurovna*
O'QITUVCHI MEHNATNI ILMIY ASOSDA TASHKIL ETISH YO'LLARI ... 457-465

*Atamuratova Munira*
O'ZBEK GURUHLARIDA INGLIZ TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA MADANIY ASPEKTDAN FOYDALANISHGA OID ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA INTERFAOL METODLAR TAVSIFI ... 466-471

*Нурилло Эминов*
ХОРАЗМ ДОСТОНЛАРИНИНГ МОҲИР ИЖРОЧИСИ ОТАХОН МАТЁҚУБОВНИНГ ИЖОДИГА БИР НАЗАР ... 472-476

SCIENCE PROBLEMS.UZ

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ S/4 (3)-2023.**
**ISSN: 2181-1342 (Online)**
**https://scienceproblems.uz**

*13.00.00 – Педагогика фанлари*

**Saparboyeva Dilshoda Sobir qizi,**
Fan va texnologiyalar Universiteti
“Boshlangʻich va maktabgacha taʼlim” kafedra mudiri

## BOSHLANGʻICH SINF OʻQUVCHILARIDA INSON QADRINI ULUGʻLASH MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada “Tarbiya” fanini oʻqitish jarayonida boshlangʻich sinf oʻquvchilarida inson qadrini ulugʻlash mexanizmlari nazariy jihatdan asoslangan.

**Kalit soʻzlar:** Oʻqituvchi, mashgʻulot, ulugʻ inson, metod, mashgʻulot, yangi Oʻzbekiston, kamolot, mantiqiy fikr, tuygʻu, kitob oʻqish, dars, masʼuliyat, ota-ona, iroda, eʼtiqod, faoliyat, bilim, jamiyat, taʼlim-tarbiya.

**Сапарбоева Дильшода Сабир кызы,**
Университет науки и технологий
Заведующий кафедрой “Начальное и дошкольное образование”

## МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРЫ ПРОСЛАВЛЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ЦЕННОСТИ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

**Аннотация.** В данной статье теоретически обоснованы механизмы прославления человеческой ценности у младших школьников в процессе преподавания предмета “воспитание".

**Ключевые слова:** Учитель, обучение, великий человек, метод, обучение, новый Узбекистан, зрелость, логическая мысль, чувство, чтение книг, урок, ответственность, воспитание, воля, вера, деятельность, знание, общество, образование.

**Saparboyeva Dilshoda Sobir kizi,**
University of Science and technology
Head of the Department “Primary and preschool education”

## MECHANISMS FOR THE DEVELOPMENT OF A CULTURE OF GLORIFICATION OF HUMAN VALUE IN ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS

**Abstract.** In this article, the mechanisms of glorification of human value in primary school students in the process of teaching the science of “upbringing” are theoretically based.

**Keywords:** Teacher, training, great man, method, training, new Uzbekistan, maturation, logical thought, feeling, reading, lesson, responsibility, parent, will, belief, activity, knowledge, society, education.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3SI4Y2023N57

“Taʼlim sifatini oshirish – Yangi Oʻzbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona toʻgʻri yoʻlidir” [2] deya taʼkidladilar yurtboshimiz. Buyuk shoir va mutafakkir Yusuf Xos Hojibdan iqtibos keltirgan holda: “Zakovat bor joyda ulugʻlik boʻladi, Bilim bor joyda buyuklik boʻladi”,

dedilar davlatimiz rahbari. [1; 7] Shuningdek, bu maqsadlarga erishish uchun bu sohada boshlangan islohotlarni davom ettirish, ustoz va murabbiylar bilan koʻproq uchrashish, mavjud muammolarni birgalikda hal etish, bu boradagi vazifalarni hayotga tatbiq etishga koʻmaklashish zarurligini ta’kidladilar.

Bolalarda inson qadrini ulugʻlash madaniyatini takomillashtirishda oʻqituvchi ularning yosh xususiyatlari, ijodiy, tasviriy imkoniyatlarini hisobga olishi lozim. Chunki boshlangʻich sinflar oʻquvchilari har turli oʻyin va ertaklarni juda yoqtiradilar. Shuni nazarda tutib, ularni qiziqtiradigan mavzularda suhbatlar oʻtkazish mashgʻulot samaradorligini oshiradi. Ushbu jarayonda oʻquvchilarni koʻproq hikoya va asarlarga oid boʻlgan illyustratsiyalar ishlashga, hayotiy voqealarni tasvirlashga qiziqtirish ularning malakalarini oʻstirishda asosiy omil boʻlib xizmat qiladi. Shuning uchun oʻqituvchi ushbu holatda oʻquvchilarda ijodiy fikrlash, ijodiy yondashish, ijodiy munosabatlar asosida ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga ta’sir koʻrsatadi. Shuning uchun ham odam, hayvon, qush kabilarning rasmlarini ishlash oʻquvchilarga ancha qiyinchilik tugʻdiradi. Shu sababli odam, hayvon va daraxtlar rasmlarini tasvirlash bilan bogʻliq boʻlgan mavzularni oʻtishda bolalarga qiyinlik qiladigan narsalarni tushuntirish muhim oʻrin tutadi. Mashgʻulotlarning samaradorligini oshirishda koʻrsatmali qurollar oʻquvchilarning materiallarni puxta oʻzlashtirishlarini ta’minlaydi.

Koʻrsatmalilikning ta’sirchan turlaridan biri - mashhur insonlarning ish faoliyati, ularning rasmlarini chizdirish, rasmlarini koʻrsatish bolalarni hayajonlantiradi, ularni ham shunday ishlar qilishga ilhomlantiradi. Shuningdek, oʻqituvchi ulugʻ insonlarni koʻrsatish orqali mashgʻulotda biron bir kishining hayoti va faoliyati haqida gapirib beradi. [4; 18] Ushbu jarayonda oʻquvchilarda tahlil qilish, yaxshi natijalarga erishish, savollar berish, qaysi kishilar sizga koʻproq yoqadi va nima uchun kabi savollarga javoblar beriladi.

Mashgʻulotda savol-javob metodi boʻyicha koʻrsatmalilikdan foydalanish bolalarni yanada qiziqarli va mazmundor ishlashga undaydi.

Mashgʻulotlarda ifodalanadigan obyektlar va voqealar oʻquvchilarga tanish boʻlishi va tevarak - atrofdagi narsa va voqealardan tanlash ularning toʻgʻri fikr yuritishga yordam beradi.

Mashgʻulotlarda oʻqituvchi oʻquvchilarga oʻzbek xalq ertaklari, afsonalari va oʻyinlarini, shuningdek, oʻzbek yozuvchilarining ayrim hikoya va qissalarini tavsiya qilish asosida inson qadrini ulugʻlashga oid ularning bilim va malakalarni yanada mustahkamlash, qoʻshimcha tadbirlar oʻtkazish, tabiat manzaralariga, hayvonot bogʻi, san’at muzeylari, tarixiy obidalar, rassomlarning ijodiy ustaxonalari va koʻrgazma zallariga ekskursiyalar uyushtirilishi mumkin. [4; 21] Bunda oʻquvchilar ulugʻ insonlarning faoliyatidagi hayotiy voqealarni, obyektlarni quradilar, ularning ishlari bilan tanishadilar. Ekskursiya oʻtkazishning maqsadi mashgʻulot obyektini va narsalarni kuzatib oʻrganishdan iborat. Kuzatish natijalari oʻquvchilarning tematik kompozitsiyalari uchun material vazifasini bajaribgina qolmay, balki tasvirlarning haqqoniy boʻlishiga xizmat qiladi.

Ushbu jarayon bolalarga Oʻzbekistonda boʻlayotgan oʻzgarishlar haqida ma’lumotlar berishda oʻqitishning yangi metodlarini izlab topishni taqozo etadi. Ayniqsa “Tarbiya” darslarida oʻqituvchi beriladigan bilim va qoʻllanadigan malakalarning ilmiy, ongli, faol va puxta boʻlishi, oʻqitishda oʻquvchilarning yosh individual xususiyatlarini hisobga olish, oʻqitishda nazariya bilan amaliyotning birligi kabi didaktik jihatlariga alohida e’tibor berishi oʻquv fanining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, dars, toʻgarak va fakultativ

mashgʻulotlarda oʻquvchilarning gʻoyaviy, siyosiy va ma'naviy xislatlarini muntazam shakllantirib borish oʻqituvchining diqqat markazida boʻlishini talab etadi.

Tajriba va kuzatishlar shuni koʻrsatmoqdaki, inson qadrini ulugʻlash haqidagi suhbatlar quruq boʻlmasdan, boshqa oʻquv fanlari bilan bogʻlangan holda, ilmiy bilim va ma'lumotlar berilsa, oʻquvchilarda inson qadrini ulugʻlash madaniyatini shakllantirishda muhim oʻrin tutadi. Oʻqituvchi bu vazifani toʻgʻri tushungan holda buni har bir mashgʻulot jarayonida amalga oshirib borishi, ta'lim tamoyillariga rioya qilishi, birinchidan, oʻquvchilarni inson qadriga oid bilim va malakalar bilan qurollantiradi, ikkinchidan, "Tarbiya" darslarini ortiqcha, palapartish, koʻr-koʻrona, quruq materiallardan holi qiladi. Agar oʻqituvchi inson qadrini ulugʻlash haqida ilmiy ma'lumotlarga ega boʻlsa, ularni dars maqsadiga boʻysundira olsa, u darsning ilmiyligi va izchilligini ta'minlagan boʻladi. Buning uchun oʻqituvchi inson haqida suhbat oʻtkazishi lozim boʻladi. Suhbat oʻtkazilganida ularning barcha xususiyatlari va belgilari haqida fikr yuritiladi. Bu ma'lumot oʻquvchilarni darsga boʻlgan qiziqishini orttiradi. Ularning dars jarayonida ongliligi va ijodiyligini, mustaqilligi va tashabbuskorligini oshiradi. [3; 62]

Oʻquvchilarda dars materiallariga qiziqish uygʻotish gʻoyat katta ahamiyat kasb etadi. Bu esa ularni passiv tinglash harakatidan faol tinglash va ijodiy mehnatga undaydi, mustaqillikka boshlaydi. Shu maqsadda oʻqituvchi dastur materiallariga kiritilgan barcha mavzularni oʻquvchilarga yetkazishda "Tarbiya" fanining nazariyasi va metodikasiga asoslanishi lozim. Har bir fan oʻqituvchisi oʻquvchilarda inson qadrini ulugʻlash haqidagi bilim va malakalar berishda tizimlilik va izchillik prinsipiga muntazam amal qilishi lozim. Buning uchun avvalo materiallarni toʻgʻri rejalashtirish va ularni bir-biriga bogʻlab bayon etish, har bir yangi material, tushuncha va malakalar oldingi darslarda berilgan bilim va malakalarning davomi boʻlishi, ularni kengaytirib va mustahkamlab borish, yangi dars materialini tahlil etish va shu haqda oʻtkaziladigan suhbat oʻquvchilarning inson qadrini ulugʻlash madaniyatini rivojlantirishda ijodiy tashabbusini oshirishi va mustaqil fikr yuritib ishlashga undashi lozim.

Ta'lim jarayonining tizimlilik va izchillik prinsipi "Tarbiya" darslarida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bu oʻquv fanining dastur mazmuni va ish uslubi oʻquvchilar oldingi dars materialini toʻla oʻzlashtirmay turib yangi materialni aslo oʻzlashtirib boʻlmasligini koʻrsatdi.

"Tarbiya" fanidan oʻquvchilarga berilayotgan bilim va malakalar avvalo oʻtilgan darslar va olgan bilimlar bilan mustahkamlanadi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining bilim va malakalarini, psixofiziologik, yoshlik, shuningdek individual xususiyatlarini nazarda tutishda oʻqituvchi ularning jismoniy, aqliy kamolotini, mantiqiy fikr yuritishini, eslab qolish qobiliyatini, insonlarning asosiy faoliyatini sinchiklab kuzata olish, koʻrgan va oʻrgangan narsalarini ogʻzaki bayon eta olish, ular bilan individual ishlash kabilar inson qadrini ulugʻlashning asosiy omillari hisoblanadi. Ushbu jarayonda oʻqituvchi oʻquvchilarga berilayotgan nazariy bilimni amaliy ish bilan bogʻlab olib borish darslarning ilmiyligini ta'minlashda, ularning milliy dunyoqarashni shakllantirishda, mustaqillik va tashabbuskorlikka oʻrgatishda keng imkoniyatlar yaratadi. Oʻqituvchi qadri nimaligini tushunib yetishda ustozlarning fikrlarini oʻzlashtirish, ular mehriga toʻyib, kelajakda oʻz kasbida orzu qilish xususiyatlarini rivojlantiradi. [2; 88]

Oʻqituvchining oʻquvchilarga dars materiallarini tushuntirishda, soʻz bilan ifodalashda qiynaladigan masalalarni bayon etishda, narsa va voqealarni, obyektlarni izohlashda, ular haqida suhbatlar oʻtkazish va darsdagi vazifalarni tushuntirishda koʻrsatmali materiallardan keng foydalanish inson qadrini ulugʻlash xatti-harakatlarini, ulardagi oʻzgarishlar yoki

kuzatishlar, yangi tushunchalarni singdirish yordamida yangicha sharoitda amalga oshirilganda oʻquvchilar uchun qiziqarli va taʼsirliroq boʻladi. Oʻquvchilar xotirasida qoladigan barcha insonlar bevosita hissiyotlar his-hayajonlar va kuchli emotsiya taʼsirida oʻrnashib qolgan faktlar tasavvurda uzoq vaqt saqlanib qoladi ayrim faktlar esa bir umr esdan chiqmaydi. Albatta ushbu his-hayajonlarni shakllantirishda "Tarbiya" fanlari muhim rol oʻynaydi. Chunki ushbu fan bolalarning eng nozik tuygʻulariga, emotsional kechikmalariga kuchli taʼsir qiladi, ularda yangidan-yangi hislarning yuzaga kelishiga sabab boʻladi. Shuningdek oʻquvchilarda tarkib topgan ideallarni yanada yorqinlashtiradi, goʻzallashtiradi va takomillashtiradi.

Oʻquvchilarda inson qadrini ulugʻlash madaniyatini rivojlantirishda "Tarbiya" fanini oʻqitish, savol-javoblar kabilar ularni estetik va axloqiy tarbiyalashda muhim oʻrin tutadi. Ushbu jarayonda bir-birini hurmat qilish, bir-birini kamsitmaslik, bir-birlari bilan doʻstlashish, ulardan birontasi nojoʻya ish qilayotgan boʻlsa, bundan ularni qaytarish, uning qilayotgan ishi notoʻgʻri ekanligini yaxshi gaplar bilan tushuntirish, har bir ish orqali hamjihat boʻlish, hamkorlikda ishlash kabilarni amalga oshirishda oʻqituvchining fantaziyasi, oʻquvi va ijodkorligi katta rol oʻynaydi. Ushbu jarayonda savollar orqali insonning ulugʻligi haqida oʻquvchilarning toʻla his etishlariga sharoit yaratish oʻqituvchining pedagogik mahoratiga bogʻliq. Oʻquvchilarga Oʻzbekistonda yuz berayotgan oʻzgarishlarni bilish, yangi qurilayotgan binolar, viloyat va shaharlarda boʻlayotgan oʻzgarishlar, qoʻli gul insonlar sergʻayratligi, salobatli, osmonoʻpar binolarning inson aql-zakovati bilan vujudga kelganligi, inson salomatliligiga eʼtibor haqida suhbatlashib ularda shukronalik tuygʻularini rivojlantirishning asosini tashkil etadi.

Ushbu jarayonlar oʻquvchilarda yuksak insoniy tuygʻularni, insonlarga chuqur hurmatda boʻlish, doʻstlik, oʻrtoqlik, jamoaviylik kabi oliyjanob hislarni muvaffaqiyatli tarbiyalashda oʻqituvchi har tomonlama bilimga ega boʻlishi, estetik va axloqiy tarbiya asoslarini puxta bilishi, oʻquvchilarni chin dildan seva olishi, ular bilan umumiy til topisha olishi, hurmatini qozonishi lozim. Shundagina, u bolalarning ichki dunyosiga cheksiz quvonch olib kira olishi, ularning his-tuygʻulariga oʻzi istaganicha ijobiy taʼsir koʻrsata olishi mumkin.

Ushbu jarayonda oʻqituvchi oʻquvchilarning individual xususiyatlarini oʻrganish, oila aʼzolari bilan mustahkam aloqa oʻrnatish, ularni maktabning taʼlim-tarbiyaviy ishlariga jalb etish, oilada oʻquvchining oʻquv ishlarini, kun tartibi va mehnat tarbiyasini toʻgʻri tashkil qilish, ularning bilimlaridagi individual kamchiliklarni hisobga olish, ularga bir xil talab qoʻyish, muayyan ishlarga maktab jamoasi va ota-onalar jamoatchiligini jalb etish kabi ishlar amalga oshiriladi.

Oʻquvchilarning har biri haqida yetarli malumotlar olingach, uning oʻziga xos xususiyatlari oʻzaro taqqoslab koʻriladi. Ushbu jarayonlar har bir oʻquvchi xususiyati, oʻzlashtirishi va tarbiyasiga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Oʻquvchining oʻquv ishlariga munosabati, uy vazifasini bajarishi, oʻrtoqlari va oʻqituvchilariga yaxshi muomalada boʻlish, maktab bilan bogʻliq faoliyatlariga qiziqishi, uning yaxshi oʻqishi va jamoat ishlarida faol qatnashishi bilan ajralib turishi muhim vazifalardan sanalib, bu masalani sinf rahbari, oila, ota-onalar jamoatchiligi, maktab jamoasi hamkorligi asosida amalga oshirish oʻz samarasini koʻrsatadi. [4;31]

Xulosa qilib aytganda, ushbu jarayonda oʻqituvchi oʻquvchilarni kitob oʻqish, ularni oʻqishga odatlantirish, bilimga qiziqtirish, kartochka-konsultant vositasida oʻrta va undan yuqori maʼlumotli ota-onalargina emas, balki boshlangʻich malumotli ota-onalar ham malakali uy vazifalarini tayyorlashga boʻlgan qiziqish va masʼuliyatini oshirish, dars tayyorlashda

uchraydigan qiyin vaziyatlardan chiqish, darsda faol ishtirok etish, materialning ongli oʻzlashtirilishi oʻqituvchi bilan ota-onalar oʻrtasidagi aloqani mustahkamlash, ota-onalarning oʻz farzandlari oʻquv ishlarida amaliy qatnashish imkoniyatlarini oshirish, oʻquvchilarning oʻquv faoliyatlarini boshqarish, oilada oʻzidan kichiklarga yordam koʻrsatish, kabilar talim-tarbiya ishlari mazmuniga chuqur kirib boradi. Ilgʻor pedagog, ota-onalar oʻquvchilarga kelajakda malakali kishilar bulib yetishishlari uchun yordam koʻrsatish jarayonini amalga oshiradilar.

## Adabiyotlar/Литература/References:

1. Sh.Mirziyoev. Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasi. "Oʻzbekiston" Toshkent-2022 yil
2. Sh.Mirziyoyev. 2023-yilni "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim" yili.
3. U.Mahkamov, D.Mahkamov, N.Mahkamova, D.Isroilova. Tyutor pedagogik faoliyatini tashkil etish.. "ZERO PRNT" Toshkent-2022 yil
4. Haydarov A. Madaniyat - milliy yuksalish poydevori. - Toshkent: Oltin meros press. 2021.

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SP1342V3SI4Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Махсус сон

*№ S/4 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).